



OILA JAMIYAT VA DAVLAT HIMOYASIDA

Ne'matjonova Rayhona Nozimjon qizi

Fargona viloyati Yuridik texnikumi

„Davlat - huquqiy faoliyati “

yo'nalishi 21. 22 guruhi o'quvchisi

Tel raqam: (99) 909-89-81

E-mail: rayhonnematjonova 2005 @gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oila tushunchasiga ta'rif, oila qurishning talab va tartiblari, konstitutsiya va oila kodeksida keltirilgan moddalar haqida ma'lumotlar berildi. Bundan tashqari, Qur'oni karimdan oila haqida hadislar, rivoyatlar ham keltirib o'tilgan oila kodeksiga binoan ushbu kodeksning 2-moddasi oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligiga asoslanadi. Konstitutsiyamizning 63- moddasiga binoan nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi. Bundan tashqari oila haqida chiroyli iqtiboslar va yurtboshimizning fikrlari keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, hujjat, qomus, huquq, FHDYO, dalolatnoma, oila kodeksi, rivoyat hadis, Quroni Karim, mustahkam Oila*

Oila - jamiyatning asosiy bog'inii, muqaddas maskan, Mamlakat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi asosiy hujjat-Bosh Qomusimizda oila masalasiga alohida urg'u berilgani ham bejiz emas, albatta.

Konstitutsiyamizda oila jamiyatning asosiy birligi chambarchasligi hamda jamiyat va davlat muhofazasida bolish huquqiga ega ekanligi belgilab qoyilgan. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyos.

Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hissiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shakllanadi. Ya'ni oila ma'naviy jihatdan butun bo'lsagina, mustahkam boladi. Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat esa, albatta, qudratli boladi.

Oilada er-xotinning huquq va majburiyatlari yuzasidan bolayotgan bahslar, turmushning darz ketishi va u bilan bog'lig mojarolar, ayrim xonadonlarga "juda notinch ma'naviy-ruhiy muhit natijasida sodir bo'layotgan nikohdan ajralishlar bugungi kunda jamiyatimizda jiddiy e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masaladir.

Arzimagan vajlar sabab oilani barbod etish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi Bolaning uvoli tutadi ", degan gaplar ham o'z ozidan paydo bo'lmagan. Afsuski, non savobni bilmaydigan, norasidalarining yetim qolishini oylamaydigan otanalar ham oramizda yoq emas.

Ho'sh, nima uchun bunday holatning vujudga kelyapti? Asl sababi nimada? Tahlillarge ko'ra, bu muammoning bosh omili-ularning huquqiy bilimi yetarli darajada ega emasliklari, huquqiy savodxonlik darajasining dalolat beradi



Shuning uchun ular ajralish holati qanday oqibatlarga olib kelishini tushunib yetmaydilar.

E'tibor qiling, ajralish tufayli noto'liq vilatandon vujudga keladi. Ayni kunda aksariyat ijtimoiy xavfli jinoyatlar sodir etayotgan ayollar va voyaga yetmagan bolalar "noto'liq oilalardan ekanligi kuzatilyapti. Yoki bo'lmasa, boshqa huquqbuzarliklar, odam savdosi qurbonlari, noqonuniy 4 yurli yo'l bilan chet davlatlarga chiqib ketayotgan yoshlar, ayyolar, abbat, bularning barchasi asosan da yuzaga kelgan hamda noto'liq oilalarda bo'layotgani achinarli holstdir.

Statistikaga nazar soladigan bo'lsak birgina Sergeli tuman FHDYO bo'limida joriy yilning dastlabki da aveta (191 last sua govorlariga asosan, 57 lasi esa o'zaro rozilik bilan FHDYO bōlimida) ajralganlik haqidagi dalolatnoma yozuvlari qayd etildi.

Oilaning buzilish sabablari o'rganib chiqilganda, 28 ta ho latda farzandsizlik, 7 tasida xiyonat, 34 tasida uzoq vagt birga yashamaslik, 119 tasida oilaviy kelishmovchiliklar va qolgan holatlarda yoshlarimizning oila qurishga tayyor emasligi, sogligiga e'tiborsizlik , yigitlarning oilaning boshqara olmasligi oilani moddiy ta'minlash, farzandlarni manan hamda jismonan sog'lom qilib tarbiyalashni oz burchlari, deb bilmasliklari, qizlarning esa uy bekasi onalik vazifasini tushunmasligi, aksariyat hollarda qaynona va kelin o'rtasidagi mojarolar tufayli yuzaga kelayotganligi malum boldi.

Qolaversa, ajrashish holatlari oilalardagi kelishmovchiliklar, o'zaro muhabbatning yoqligi, fil-atvorning to'g'ri kelmasligi, er yoki xotinning kasalligi, achinarlisi, yigitlargaing ichkilikbozlik, giyohvandlikka berilib ketishi ayrim yoki boshqa ayollar bilan hayot kechirishi natijasida ham kelib chiqqan.

Bilamizki, oilalar kachligi va mustahkamligida oila boshliq - erkaklarning o'rni hamda masuliyati juda katta. chunki hayotning qiyinchiliklarini ular o'z yelkalariga oladilar. Afsuski, amaliyotda ko'rib turibmizki, erkaklarninglarning oilaviy munosabatlarda o'z o'rnini yo'qotib qo'yayotgani, ya'ni ikkinchi darajaga tushib qolayotgan holatlar ham yo'q emas.

Xosh, muammolarning oldini qanday olish zarur? Avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlab borish zarur. Bu juda muhim ahamiyatga ega. Unda bir gator omillarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi, oiladagi ajrimlarni oldini olishda, asosan, yoshlarai oila ilmiga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Ularda oila muqaddas qorg'an ekanligi tog'risidagi tartibot-tushuntirish ishlarini butunlay yangi bosqichda, ya'ni noodatiy usul va yondashuvlar asosida olib borish kerak. Oila qanchalik mustahkam bōlsa, jamiyat ham shunchalik mustakkam bo'ladi va rivojlanadi.

Shuning uchun ham Birlashgan Milladlar Tashkilotining Bosh Assam - bleyast 1994-yildan e'tiboran har yili 15-may uchun xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qilgani bejiz emas, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida shunday deyilgan:



Balog'atga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati va diniga qarab biror bir cheklovlarsiz nikohdan otish va oila qurish huquqiga egadirlar. Ular nikohdan o'tayotganlarida ham, nikohda bo'lgan vaqtda ham va nikoh bekor qilinayotganda ham bir xil huquqlardan foydalanadilar.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabr kungi 820 son li qaroriga ko'ra "Mahalla va oilani qollab-quvvatlash vazirligi hamda Yoshlar ishlari agentligining tuman (shahar) mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limlari huzurida Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash markazlarini tashkil etish to'grindagi taklifi ma'qqullangan.

Quyidagi markazlarga tashkil etishning asosiy maqsadi deb belgilangan:

• **zamonaviy oilaxing namunali shaklini hamda „Oila- muqaddas“... Sag'lom oila - sog'lom jamiyat", „Oila -jamiyat va davlat himoyasida" va „Farovon oila-jamiyat ravnaqining asosi, a konseptual g'oyalarini nikohlanuvchilarning ongiga singdirib borish;**

Nikohlanuvchi shaxslarni oilaviy-huquqiy munosabatlar, oilaviy hayot prixologiyasi, oila iqtisodi va byudjeti, repproduktiv salomatlik asoslari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini mustahkamlash masalalari boyicha tizimli tayyorlash;

Oila va islom. Donishmandlar oila haqida.

Ma'lumki, Islom dinining muqaddas manbalari - Quroni "Karim" va "Hadis Sharif" da oila, oilaviy munosabatlarga oid qarashlar o'z ifodasini topgan. „Quroni Karim da "Xotinlaringiz zirotgohingizdir" deyiladi. Buning ma'nosi oila qurishdan ko'zlangan asosiy maqsad – farzandd ko'rish, ularning komil insonlar bo'lib voyaga ye tishlarini ta'minlash ekanligidir.

Shuningdek, Islom ma'naviyatida oilani halol, pok saqlask, erkak va ayolning bir-biriga bo'lgan sadoqati, maishiy buzuqlikning katta gunoh ekanligi takror- takror uqtiriladi. "Chunonchi, Agar bir shaharda loqal bir ayol bir marta buzuqlik ko'changa kirib, harom orttirs, bu shahardan qirq yil fayzu barakat ko'tarilib ketadi" deyilgan.

Shunday ekan kamolotga yetishmay turib, iqtisodiy farovonlikni ta'minlash mumkin emas. Oila qurish balog'atga yetgan har bir yigit-qiz uchua ha yotiy zaruriyat bo'lib, ularning o'zaro andu-paymoni asosidagi ijtimoiy birlik sifatida namoyon boladi.

Oilaning mustahkamligi oilaa az'olarining totuvlidge, er-xotinning oila yuritish "ko'nikma va malakalariga egalik darajasiga bog'lig. Oilaning mustahkamligida ayolning alohida roli bor.

"Zero, oila tashvishlarining aksariyati uning zimmasida bo'ladi. Bu borada buyuk mutaffakkir Alisher Navory quyidagilarni qayd etadi.. **Er bilan xotin bir-biriga mos tushsa, ortada boylik va saranjomlik bo'lur. Uy bezagi undan va uylanganning tinchligi undan. Husni bolsa, ko'ngilga yoqimli bo'lar, yaxshiligi bolsa exon ozig'idir. Agili bo'lsa turmush intizomli va ro'zg'or kerak tartibli va saranjomli boladi . Kishi bu hildagi juftga erishsa, balki bunday baxt o'lga tushsa, yashirin g'am va kulfatda sirdosh va hamdarding bo'lur Har jafo ersa, xasratdoshing ul"**



Xulora qilib aytganda, oilani mustahkamlash uchun astoydil harakat qilish kerak. Chunki oila - muqaddas dargoh. Uni buzib yuborish esa katta gunohdir. Muhtaram Prezidentimiz olla haqida shunday deganlar:

„Oila – mehr va baxt qo’rg’oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho nemat bor, insoniy qadr-qimmat va ma’naviyat bor. Oilaviy baxt bu - eng ulug saodatdir”

Yoshlar oila atalmish muqaddas dargoh ostonasiga qadam qoyar ekan, “Men oila qurishga tayyormanmi? Oilam mustahkam bo’lishi uchun nimalar qilishim kerak?” degan savollarni o’ziga bersa, mustaqil hayotga yuzaki emas, o’ta jiddiy masala deb qorasa, oilalar da paydo boladigan ba’zi bir noxush holatlarning oldi olinadi.

Jevri Talveling shunday sozlari bor: **„Xudo oilali insonga maksimal darajada mehr-muxabbat, yordam va axloq bilan ta'minlash uchun yaratgan. Bu tasavvur qilish mumkin bolgan eng yaxshi misol”** Zero, har bir inson oila qurib, baxtli yashashga haqlidir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeks-Toshkent: Adolat, 2016.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-Toshkent: Adolat, 2018
3. Janieva M. X, Latipova N. M, Karanyan M. Iftimaży ish asoslari. Uslubiy göllanma - Toshkent: 2010-
4. Munavvarov. 4.Q. Oila pedagogikasi. -T: Ogituvchi, 1994. - 112 b.